



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 16-aprel

276-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Nurafshon shahri hududida bo‘sh turgan yer maydoni sifatida davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-sonli farmonini, viloyat jinoyat ishlari bo‘yicha Nurafshon shahar sudining 2023-yil 5-iyundagi 1-1121-2302/48-sonli qarorini, Davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasining “Manfaatdor shaxslarning ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuzasidan qilingan murojaatlarni ko‘rib chiqish” komissiyasining 2023-yil 30-avgustdagi 91-sonli bayonini, Nurafshon shahar hokimligining 2025-yildagi 1/1-56-sonli xatini va taqdim etilgan hujjatlarini ko‘rib chiqib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 10-moddalariga asosan, **qaror qilaman**:

1. Viloyat jinoyat ishlari bo‘yicha Nurafshon shahar sudining 2023-yil 5-iyundagi 1-1121-2302/48-sonli qarori, Davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasining “Manfaatdor shaxslarning ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuzasidan qilingan murojaatlarni ko‘rib chiqish” komissiyasining 2023-yil 30-avgustdagi 91-sonli bayoni, Nurafshon shahri hokimligining 2025-yildagi 1/1-56-sonli xati hamda taqdim etilgan hujjatlar ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyat jinoyat ishlari bo‘yicha Nurafshon shahri sudining 2023-yil 5-iyundagi 1-1121-2302/48-sonli qaroriga asosan, Nurafshon shahri hokimining 2019-yil 30-dekabrda 1226-sonli qarori soxtalashtirilgan deb topilganligini hamda Davlat Kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasining “Manfaatdor shaxslarning ko‘chmas mulk obyektiga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuzasidan qilingan murojaatlarni ko‘rib chiqish” komissiyasining 2023-yil 30-avgustdagi 91-sonli bayoni bilan 2021-yil 21-oktabrdagi 11:21:01:02:06:0660-sonli kadastr

pasporti hamda 1727401/I-A-2160447-sonli davlat ro'yxatidan o'tkazish haqidagi davlat reyestri ko'chirmalari bekor qilinganligini ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Nurafshon shahri hokimligining 2025-yildagi 1/1-56-sonli xatiga asosan, shaharning "Birlik" MFY hududida joylashgan bo'sh turgan 10,0 gektar yer maydoni Nurafshon shahri hokimligi nomiga davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (J.Axrоров) shahar hokimligining buyurtmasiga asosan, 10,0 gektar yer maydonini davlat mulki sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazsin hamda kadastr hujjatlarini rasmiylashtirsin.

4. Nurafshon shahri hokimligi (I.Klichxanov) bo'sh turgan yer maydonidan samarali foydalanish choralarini ko'rsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimi o'rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev